

## **INGLIZ TILI ADABIYOTINI O'QITISH METODIKASI VA AHAMIYATI.**

*Saydullayeva Gavhar G'ayrat qizi*

*Samarqand davlat chet tillar instituti ingliz tili fakulteti 2-kurs talabasi.*

*Saydullayevagavhar66@gmail.com +998 93 078 99 62*

*Supervisor teacher: **Jamolova N.U***

**Annatsiya :** Ushbu maqolada mu'alif ingliz tilini organuvchilariga ingliz tili va ingliz tilining adabiyotini o'qitish metodikasi haqida shuningdek ahamiyatini kengroq tushuntirib beradi.

**Kalit so'zlar :** Zamonaviy texnologiyalar, Taraqqiyot, Vositalar, Rivojlanish , Xalqaro aloqalar, Tarixiy muhit, Maslahatlar, Nutq , Imkoniyatlar.

Biz bugungi kundagi hayotimizni zamonaviy texnologiyalar va xorijiy tillarsiz tasavvur eta olmaymiz. Ayniqsa ingliz tilini o'qitish bugungi kunda Oliy ta'lim tizimida juda muhim vazifaga aylangan. Ingliz tili mutaxassislarini yetishtirib chiqaradigan yo'nalishlar har qachongidan ham muhimlikni kasb etmoqda. Shu bilan bir qatorda ingliz tilining adabiyotini chuquroq o'rgatish, turli xil janrlarda yaratilgan adabiyotlar, asarlar haqida ham kerakli bo'lgan malumotlarni, talabalarga yetkazish vazifasi ham yetakchi o'ringa qo'yilgan. Ingliz tili adabiyoti turli xil matnlar, til va adabiy vositalar orqali o'rganiladigan fandır .

Zamonaviy bilimlarning rivojlanib borishi va glabalizatsiyaning ta'sirida til o'rganish ham o'zgarib bormoqda. Shu sababli endi o'quvchilar eskicha o'rganish orqali biror bir natijaga erisha olishi ehtimoldan yiroqda deya olmaymiz lekin zamonaviy texnologiyalar ta'sirida xorijiy tillarni tez va oson o'rgana oladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ingliz tili adabiyotini o'qitishda yangicha innovatsion yondashuvlar orqali talabalarga adabiyotni va adabiy asarlarni tushunish shuningdek qadirlashni o'rgata olamiz.

Ingliz tili adabiyotini o'qitishda zamonaviy yondashuvlarning amaliy ahamiyatlaridan biri tanqidiy fikrlash va tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirishdir. Talabalar ro'l o'ynash ya'ni asarlar ichidagi qahramonlar ro'lini o'ynash, muhokama qilish, yozma topshiriqlarni bajarish va matnlar bilan ishlash orqali asarlar ichiga kirib boradilar va tanqidiy fikrlashni shuningdek, o'z fikrlarini aniq ifoda eta olish qobiliyatlarini o'zlarida rivojlantirib boradilar. Ingliz tilini va ingliz tilining adabiyotini rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalarni ro'li ham juda katta ahamiyatga ega, chunki ingliz tili va adabiyotini o'rganishda hozirgi kunda internet saytidan kopgina ma'lumotlarni topa olishimiz va ularga tegishli bo'lgan reading, writing, listening, speaking skillarini ham topib ular orqali o'qigan, grammatik ma'lumotlarimizni va

adabiy asarlarga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni bemalol topib bilimlarimizni mustahkamlay olamiz.

Hozirgi kunda ko'pchilik yoshlar xalqaro IELTS sertifikatini olish uchun harakat qilmoqdalar bu esa ingliz tilining adabiyotini o'qitadiganlarga juda ham samarali yo'li hisoblanadi, chunki kimlardir o'zlari xohlab kimlardir esa majburlikdan IELTS uchun tayyorlanadilar, agarda ingliz tili adabiyotidagi ma'lumotlardan shu sertifikat uchun materiallar tayyorlasalar, talabalar ham boshqa o'rganuvchilar ham bu malumotlarni o'qishga o'rganishga majbur bo'ladilar. Misol uchun reading va listeningda shu metodikani qo'llasa bo'ladi va bu mening fikrimcha juda ham samarali yo'llardan biri hisoblanadi.

Milianiing tadqiqoti ushbu sohadagi yana bir yondashuvni muhokama qiladi. Ushbu yondashuvlar :

- 1). An'anaviy yondashuvda – bunda o'qituvchining roli adabiy matn bilan ishlashda juda muhim hisoblanadi, talabalar esa passiv qabul qiluvchilardir .
- 2). Tilga asoslangan yondashuv – bunda esa badiiy matnlar lingvistik jihatdan boy materiallar sifatida e'tirof etiladi va o'quvchilarning til ko'nikmalarini oshirish uchun foydalaniladi. Bu yondashuv o'quvchilarni lingvistik boyitishga qaratilgan.
- 3). O'quvchi-javob yondashuvida talabalar kitobxon ro'lini bajaradilar, va ular faol qabul qiluvchidirlar shuningdek mustaqil qobiliyatini rivojlantirib shakllantirib boradilar. Birinchi yondashuvda o'qituvchining roli badiiy matning yagona ma'no yaratuvchisi bo'lsa, keingi yondashuvlarda vositachi va konstruktiv tanqidchi ekanligi ta'kidlanadi[2].

Axborotlashgan yondoshuvda esa adabiy asarga bog'liq bo'lgan va unga tegishli bo'lgan tarixiy, madaniy elementlar haqida malumot berishga qaratilgan. Ushbu yondashuvda asosiy axborot deb tarixga, madaniyatga, siyosatga oid matnlarni o'z ichiga oladi.

Ganakumaran ushbu davrda axborotga asoslangan yondashuv adabiyotni estetika manbai sifatida ko'rishini yoki bu yondashuv adabiyotni bilim potentsiallari: falsafa, madaniyat, axloq va gumanitar fanlar bilan ta'minlangan estetik naqshli artefaklarni qadrlashni ta'kidlaydi[1].

Nutqni rivojlantirish uchun ya'ni inglizcha gapirishni rivojlantirish uchun ingliz adabiyotidagi adib va yozuvchilarni, shoir-u shoiralarni ijodlarini ko'p o'qish va sherlarini yod olish shuningdek asarlarini ko'proq o'qish orqali rivojlantira oladi.

Xullosa qilib aytganda, ingliz adabiyotini o'rganish o'quvchilar ta'limini oshirishga hizmat qiladi ya'ni bilimlarini boyitib beradi. Faqatgina bilimlarini boyitibgina qolmay dunyo qarashini ham oshiradi ingliz tili darajasini ham oshirib beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Ganakumaran, S. (2003). *Literature programmes in Malaysian schools: A historical overview*. In Ganakumaran, S.(ed). *Teaching of literature in ESL/EFL contexts*. Petaling Jaya: Sasbadi Sdn. Bhd.,27-48
2. Miliani, M. *Approaches for teaching literature and literary texts*. Unpublished research report . University of Biskra, Algeria.2003